

Oriental Journal of Education



ISSUES OF DEVELOPING KNOWLEDGE OF THE SPORT IDEAL IN THE PHYSICAL EDUCATION PROCESS

Mirodiljon Maxamadjonovich Khamroliev*Independent Researcher**Fergana State University**Fergana, Uzbekiston*

ABOUT ARTICLE

Key words: sport ideal, concept of ideal, aesthetic ideal, physical education, mass sports, healthy lifestyle, youth, spiritual and moral education, pedagogical issue, physical culture.

Received: 23.02.26**Accepted:** 24.02.26**Published:** 25.02.26

Abstract: This article analyzes the philosophical, aesthetic, and pedagogical essence of the concept of the “sport ideal” and reveals the relevance of forming and developing knowledge about the sport ideal among students and young people. The educational significance of the sport ideal in promoting a healthy lifestyle and encouraging youth participation in physical education and mass sports is substantiated. The study examines the content of the concept of the ideal, its role in personal and social development, and its close relationship with the aesthetic ideal. The sport ideal is interpreted as an important factor in the spiritual and moral development of young people, as well as in the formation of willpower, patriotism, and an active civic position. The article concludes that the development of knowledge about the sport ideal is one of the pressing issues in modern pedagogy.

JISMONIY TARBIYA JARAYONIDA SPORT IDEALIGA OID BILIMLARNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Mirodiljon Maxamadjonovich Xamroliev*Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi**Farg'ona, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: sport ideali, ideal tushunchasi, estetik ideal, jismoniy tarbiya, ommaviy sport, sog'lom turmush tarzi, o'quvchi-yoshlar, ma'naviy-axloqiy tarbiya, pedagogik muammo, jismoniy madaniyat.

Annotatsiya: Mazkur maqolada “sport ideali” tushunchasining falsafiy, estetik va pedagogik mohiyati tahlil qilinib, uni o'quvchi-yoshlar ongida shakllantirish va rivojlantirishning dolzarbligi yoritilgan. Jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga

jalb etishda sport idealining tarbiyaviy ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqotda ideal tushunchasining mazmuni, uning ijtimoiy va shaxsiy taraqqiyotdagi oʻrni, estetik ideal bilan uzviy bogʻliqligi ilmiy-nazariy jihatdan ochib beriladi. Shuningdek, sport ideali yoshlarning maʼnaviy-axloqiy kamoloti, irodaviy sifatleri, vatanparvarlik va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishdagi muhim omil sifatida talqin etiladi. Maqolada sport ideali haqidagi bilimlarni rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri ekanligi xulosalanadi.

ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ЗНАНИЙ О СПОРТИВНОМ ИДЕАЛЕ В ПРОЦЕССЕ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ

Миродилжон Махамаджонович Хамролиев

Независимый исследователь

Ферганского государственного университета

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: спортивный идеал, идеал, эстетический идеал, физическая культура, массовый спорт, здоровый образ жизни, учащаяся молодежь, духовно-нравственное воспитание, педагогическая проблема, физическая культура личности.

Аннотация: В данной статье анализируется философская, эстетическая и педагогическая сущность понятия «спортивный идеал», а также раскрывается актуальность формирования и развития знаний о спортивном идеале у учащейся молодежи. Обосновывается воспитательное значение спортивного идеала в формировании здорового образа жизни и привлечении молодежи к систематическим занятиям физической культурой и массовым спортом. Рассматривается содержание понятия идеала, его роль в личностном и социальном развитии, а также его взаимосвязь с эстетическим идеалом. Подчеркивается значение спортивного идеала как важного фактора духовно-нравственного воспитания, формирования волевых качеств, патриотизма и активной гражданской позиции молодежи. Делается вывод о том, что развитие знаний о спортивном идеале является одной из актуальных проблем современной педагогики.

Kirish. Jamiyatimizda sogʻlom turmush tarzini shakllantirish, oʻquvchilarni jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shugʻullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, oʻz iro–dasi, kuchi va imkoniyatiga boʻlgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuygʻularni kamol topti–rish, jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada

rivojlantirish, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2017 yil 3 iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3031-son qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, "jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish muassasalarini ilmiy-uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda sport maktablarini yuqori mala-kali murabbiylar va tibbiyot xodimlari bilan ta'minlash, ularning o'quv muassasalarida funksional vazifalarni belgilab olish muhimligini bugungi davrning o'zi ko'rsatmoqda". Darhaqiqat, o'quvchi-yoshlarni sport ideali haqidagi bilimlarini rivojlantirishdagi muhim vazifalardan biri jismoniy tarbiya va sport sohasida zamonaviy kadrlarni tayyorlash, ularni malakasini oshirish, ustoz-murabbiylar uchun keng imkoniyatlar yaratish va moddiy-texnik bazani yaratishdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi: G'arb davlatlarida o'quvchilarning sport ideali haqidagi bilimlarini rivojlantirish, yoshlarning aqliy va jismoniy rivojlanishini mushtaraklashtirish va bu borada jismoniy tarbiya ta'lim imkoniyatlarini oshirish masalalari olimlardan V.Koleda, J.Xargrives, A.Vett, E.Zadarko, J.Yunger, Z.Barabas, D.Braun, A.Alpers, V.Balsevich, L.Volf-Vendel, Yu.G.Tatur, V.Xutmaxerlar tomonidan tadqiq etilgan va ommaviy sport orqali ijtimoiy hayotda sog'lomlashtirish faoliyatini yo'lga qo'yishga doir maxsus xulosalar ilgari surilgan.

MDH mamlakatlarida ham o'quvchilarning sport ideali haqidagi bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Ayniqsa o'quvchilarni sport ideali haqidagi bilimlarini rivojlantirish, sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish, gigienik dunyoqarashni o'stirish masalalari B.Ashmarin, V.Balsevich, M.Vilenskiy, G.Germanov, S.Kramskoy, L.Lubisheva, O.Masalova, L.Matveev, Y.Nikolaev, S.Pavlov, I.Sechenov, V.Smolevskiy, A.Sunik, G.D.Xarabugi kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

O'zbekistonda o'quvchilarning jismoniy madaniyatini shakllantirish, o'quvchi-yoshlarni sog'lom turmush tarziga yo'naltirish, shuningdek, jismoniy tarbiya ta'limi samaradorligini oshirish masalalari A.Abdullayev, Sh.X.Xonkeldiyev, N.N.Azizxodjayeva, R.C.Salomov, E.A.Seytxalilov, O.Q.Tolipov, T.S.Usmonxadjayev, D.D.Sharipova, Sh.S.Sharipov, F.R.Yuzlikayev, T.T.Yunusov, R.Abdumalikov, T.Zayniddinov, A.Mahkamov kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Natija va muhokama: Ideal – bu inson yoki jamiyat tomonidan eng yuqori maqsad, shu hamda cheksiz tavonchilik sifatida qabul qilinadigan tushuncha. U shaxsiy hayotdagi va ijtimoiy munosabatlarda namunali maqsad, intilish darajasi bo'lib xizmat qiladi. Ideal insonlar hayotini tartibga solish, ularni yaxshiroq bo'lishga undash va jamiyatni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy lug'atlarda "ideal" tushunchasi fransuzcha "ideal", lotincha "idealus" so'zlaridan hosil bo'lgan bo'lib, "qiyofa", "mezon", "mukammallik" ma'nolarini anglatadi. Atama sifatida orzu-intilishlarning oliy maqsadini ifodalaydi[4;130] deb yozilgan. Shuningdek, boshqa xorijiy manbada

“ideal” tushunchasi yunoncha “idea” ya’ni “namuna”, “me’yor” degan ma’noni bildirishi qayd etiladi[3;170]. Bizningcha, ideal bu ideal obraz, me’yoriylik xususiyatiga ega bo‘lib, muayyan insonlar yoki ijtimoiy guruh xatti-harakatining xarakteri, usulini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Biroq o‘tmishda “ideal” tushunchasi bo‘lsa-da, uni ifodalovchi reallik atamasining nomi yo‘q edi.[1;55] Buning o‘rniga turli so‘z va iboralar ishlatilgan va “ro‘yolik”, “hayotiylik” deb yuritilgan. Ideal ijtimoiy ahamiyatga molik muhim falsafiy kategoriya hisoblanadi. Shu tufayli ham ijtimoiy ideal “reallik” tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq ravishda talqin etiladi. Binobarin, “ijtimoiy ideal” atamasi o‘zida ijtimoiy borliqning barcha jihatlarini bilish, anglash, ezgulikka qaratilgan bilimlar majmui, ikkinchidan esa ularga bo‘lgan intilishni ifodalaydi. Demak, idealga mavjud reallikdan qoniqmaslik jamiyat, davlat hayotini takomillashtirish, yuksaklikka ko‘tarish istagining ifodasi sifatida qarash mumkin. Va mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzum va munosabatlarda ijtimoiy idealning kurtaklari shakllangan bo‘ladi.

Ko‘pgina tadqiqotlarda ideal inson tafakkuridagi namuna, mukammallik timsoli, normasi, axloqiy, diniy, ijtimoiy-siyosiy va estetik ideallarning ichki xususiyatlari tahlili yoki ideallar belgilari orqali umumiylikdan xususiylikni ifodalashga harakat qilinadi.[5;] Shuning uchun ta’riflar barcha ideallarga xos xususiyatlarni qamrab olmagan yoki ayrim ideal shakllari bilan chegaralanib qolgan. Ideal sezgi, idrok, konsepsiya, mulohaza, xulosa kabi inson bilishining shakllaridan sezilarli darajada farq qiladi. Uning asosiy xususiyati shundaki, ideal har doim ham mavjud bo‘lgan narsaning aksi bo‘lib emas, balki u haqiqatda mavjud bo‘lgan, ammo hali ham universallikka erishmagan hodisani aks ettirishi mumkin bo‘lgan narsa-hodisani aks ettiradi. Ideal nima bo‘lishi, qanday bo‘lishini aks ettiradi. Ko‘pincha ideal tarixiy rivojlanish tendensiyalarining aksi sifatida gavdalanib, rivojlanishning muhim imkoniyatlarini aks ettiradi. Rivojlanayotgan ideal - bu ijtimoiy taraqqiyot qonunlaridan kelib chiqadigan, ammo hali biron bir narsa-hodisaga singib ketmagan narsaning aksidir.

Ideal tushunchasining ma’no va mazmuniga doir yuqoridagi ta’riflar bir-birini to‘ldiradi, biroq, bu ta’riflar bizning nazarimizda, idealni eng yuksak va olijanob maqsad, orzu va tilak sifatida idrok etish masalasi mohiyatini cheklab qo‘yadi.[6] Chunki ideal faqat maqsad, orzu va tilakdan iborat emas. Agar maqsad, orzu va tilak ideal sifatida olinsa, idealning umummillat miqyosida yoki shaxs uchun mushtaraklik jihati fikran chetda qoladi.

Ideallikning mohiyati va ta’rifining murakkabligi, uning inson hayoti, faoliyatida amal qilishi va namoyon bo‘lishi kabi masalalarning barchasi bilishning murakkabligini anglatadi.[7] Bu esa o‘z navbatida ideallikning mohiyati to‘g‘risidagi falsafiy tasavvurlarning rang-barangligiga sabab bo‘ladi. U yoki bu falsafiy maktablarning turli fikrlaridan tortib, butun falsafa doirasida yuzaga kelgan katta tafovutiy yo‘nalishlar – materializm va idealizm gacha bu muammo belgilovchi ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Boshqacha qilib aytganda, ideallik azaliy va, ayni paytda, eng dolzarb zamonaviy falsafiy muammolardan biridir.

Sport ideali estetik idealning tarkibiy qismi hisoblanadi. Estetik ideal sohasidagi tadqiqotlar goh obyektiv qonuniyatlar, goh subyektiv manfaatlar doirasida tadqiq etilib, go‘zallik namunasining intellektual ko‘rinishi, mukammallikning axloqiy-estetik talablari birligi, barkamollik va komillik g‘oyasi va qadriyatlar tizimining birbutunligini ta‘minlovchi antitetik birlik sifatida tavsiflanib kelinmoqda.[8] Estetik idealni genezisiga e‘tibor berilsa, unda shaxsiyatning ekzistensial tajribasini sintezlashganini ko‘rish mumkin. Insoniyatning go‘zallik ideali borasidagi barcha hayotiy tajribalarini uyg‘unlashtiradi, ma‘naviy dunyosidagi ekzistensial bo‘shliqlarni to‘ldiradi. Estetik ideal o‘zida uch birlik go‘zallik etaloni, haqiqat va ezgulikni birlashtiradi. Shu xususiyati tufayli estetik idealni ijtimoiy idealni shaxsiy ko‘rinishi deb tavsiflashadi.

Ideal insonga e‘tiqod, qadriyat va ongli faoliyat mo‘ljali taqdim etgan bo‘lsa, estetik ideal esa ma‘lum ijtimoiy-tarixiy makon va zamonda shaxs erkin faoliyatini, ijodiy ufqini aniqlab bergan. Ideal jamiyatda guruhlararo, shaxslararo munosabatlardagi huquqiy, diniy va ijtimoiy-amaliy faoliyatni bir xillashtirish, yagona maqsad, g‘oya sari harakatini ta‘minlashda konstruktiv ahamiyat kasb etib kelgan.[9] Estetik ideal shu ijtimoiy guruhlar faoliyatidagi har xillik, erkinlik, ijodiylikni uyg‘unlashtiradi (simmetrik holatga keltiradi), tasavvur, qadriyatlar asosida shaxsning garmonik rivojlanishi uchun eng yuqori darajadagi g‘oyaviylikni ifodalaydi.

Ideal insonning ma‘naviy dunyoqarashini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri. U insonga hayotda o‘z yo‘lini topish, ishlariga ma‘no berish imkonini beradi. Ideallar orqali shaxs o‘zini rivojlantirishga, o‘z-o‘zini tarbiya qilishga urinishadi. Masalan, adolat, mehnatkashlik kabi fazilatlar ko‘pincha ideal sifatida ko‘rilgan va inson ruhini yuksaltirishda xizmat qilgan. Ikkinchi tomondan, ideal axloqiy normalarni mustahkamlaydi. U insonni jamiyat bilan bog‘laydigan, unutmazlik kerak bo‘lgan qadriyatlar ro‘yxatini belgilaydi. Shuning uchun har bir shaxs va jamiyat uchun adabiyotda yoki ta‘lim sohasida ideal tushunchasi va uning nomi ko‘plab tahlillarga sabab bo‘lgan.

Ideal jamiyatda umumiy maqsadlar va qiymatlar tizimini tashkil etuvchi omil bo‘lib, ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot uchun asos yaratadi. Jamiyatda umumiy ideal mavjud bo‘lganda, u insonlarni o‘zaro hamjihatlikka, mehnatga da‘vat qiladi. Masalan, demokratiya, tenglik yoki adolat kabi umumiy ideallar jamiyatdagi turli guruhlarini birlashtiradi. Psixologik jihatdan qaralganda, ideal insonning ruhiy holatiga ijobiy ta‘sir o‘tkazadi. U odamga ma‘naviy kuch berish, stress va qayg‘ularni yengishga yordam beradi.[10] Keyingi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, insonning ichki ideali borligida o‘zini qoniqqan his etishi va shaxsiy muvaffaqiyatga erishishi yuqori bo‘ladi.

Ideal tushunchasi inson hayotida va jamiyat taraqqiyotida murakkab, lekin o‘ta muhim rol o‘ynaydi. Birinchidan, ideal ma‘naviy va axloqiy mezon sifatida shaxsni rivojlantirish, unutmazlik va munosiblikni ta‘minlaydi. Ikkinchidan, ideal ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash, umumiy maqsadlarga erishish va insonning ruhiy barqarorligini qo‘llab-quvvatlashda muhim manba hisoblanadi. Shu tariqa, ideal orqali inson va jamiyat yashayotgan muhit sifatida yanada kuchli va tartibli bo‘ladi.

Konseptual jihatdan ideal va ideallik juda ham keng tushuncha bo'lib, nomavjud, xayoldagi insonga voqelikdagi real, mavjud inson, hayotdagi hodisalar qiyoslanadi, ya'ni bor narsa yo'q narsa bilan o'lanadi. Buning ustiga, ideal, yirik ma'noda, hozirgi zamonda ham, kelajakda ham bo'lmaydi, uning mavjudlik sharti - o'tgan zamon. [11] Demak, idealga intilish shaxsning o'z zamonasidagi odatiy sharoitga sig'maslik, uni tezroq kengaytirish uchun qilingan xatti-harakatidir. Bu xatti-harakat uchun namunani inson, hozirgina aytganimizdek, kelajakdan topolmaydi, chunki namuna tarixiylikni, tajribaviylikni talab etadi; axloqiy idealga aylangan shaxs tarixiy tajribadagina mavjud bo'ladi va muayyan zamonga kelib, u ma'lum ma'noda mubolag'aviy hamda afsonaviy ta'rif-tavsif bilan boyitiladi, ya'ni ideallashtiriladi. Bunga ideal odil podsho No'shiravon, odil yoki ideal sahovat egasi, jo'mard inson Hotam Taiy Yamaniy siymolari yorqin misol bo'la oladi.

Har bir inson ideal sari intiladi, o'z hayotini unga qiyoslaydi, unga taqlid qiladi. U inson hayotidagi eng oliy axloqiy talabki, uning bajarilishi shaxsni komillikka yetkazadi. Albatta, hayotda bunga to'la erishib bo'lmaydi, lekin inson ana shu komillikni o'ziga namuna bilib, idealga intilib yashashi jarayonida nisbiy-hayotiy komillikni qo'lga kiritadi.

Xulosa: Jismoniy tarbiya jarayonida sport idealiga oid bilimlarni rivojlantirish o'quvchi-yoshlarning jismoniy, ma'naviy va axloqiy kamolotini ta'minlashda muhim pedagogik ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sport ideali tushunchasini ta'lim jarayoniga tizimli ravishda singdirish yoshlarning sog'lom turmush tarziga bo'lgan munosabatini mustahkamlaydi, ularning sportga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda irodaviy sifatlar, mas'uliyat, intizom va vatanparvarlik tuyg'ularining shakllanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, sport idealining estetik va ijtimoiy ideallar bilan uzviy bog'liqligi jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining tarbiyaviy imkoniyatlarini kengaytirib, o'quvchilarda shaxsiy namuna asosida o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini tarbiyalash ehtiyojini yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, sport idealiga oid bilimlarni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion metodlar hamda ustoz-murabbiylarning kasbiy kompetensiyasi muhim omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya jarayonida sport idealiga oid bilimlarni rivojlantirishni pedagogik tizim sifatida takomillashtirish, uni ta'lim mazmuniga chuqur integratsiya qilish va amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish bugungi ta'lim amaliyotining dolzarb vazifalaridan biri bo'lib, bu jarayon yosh avlodning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Zayniddinov T.B. Sog'lom turmush tarzini to'g'ri tashkil qilishda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining pedagogik faoliyati // Jismoniy tarbiya va salomatlik jurnali.2019, 2(75). – B.60.

2.Falsafa: qomusiy lug'at. Tuzuvchi va ma'sul muharrir Q.Nazarov. – Toshkent: Sharq, 2004. – 142 b.

3. Noveyshiyy filosofskiy slovar / Sost. A.A. Gritsanov. – Mn.: Izd. V.M. Skakun, 1998. S.252.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida : PQ–3031-son qaror. – Toshkent, 2017.
5. Abdullaev A. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
6. Xonkeldiyev Sh.X. Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi. – Toshkent: Fan, 2019.
7. Salamov R.S. Jismoniy madaniyat va sport faoliyatining pedagogik asoslari. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2017.
8. Tolipov O‘.Q., Usmonxadjayev T.S. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
9. Matveev L.P. Teoriya i metodika fizicheskoy kultury. – Moskva: Fizkultura i sport, 2014.
10. Vilenskiy M.Ya. Fizicheskaya kultura lichnosti. – Moskva: Akademiya, 2015.
11. Lubisheva L.I. Sotsialnaya rol sporta v formirovanii lichnosti. – Moskva: Sovetskiy sport, 2016.